

## YOSHGA KO‘RA GIPOTIREOZ VA GIPERTIREOZ HOLATLARIDAGI QALQONSIMON BEZNING MORFOFUNKSIONAL PARAMETRLARINI TAQQOSLASH

Masharipova Hulkar Qabulovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

**Kirish:** Qalqonsimon bez kasalliklari, xususan gipotireoz va gipertireoz ayollarda keng tarqalgan endokrin patologiyalar hisoblanadi. Ularning klinik manzarasi yosh o‘zgarishlari bilan bog‘liq ravishda farq qiladi. Shu sababli, yosh guruhlari bo‘yicha qalqonsimon bezning morfofunktsional holatini baholash dolzarb masala hisoblanadi. Qalqonsimon bezning morfofunktsional holati va yod tanqisligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun, biz qalqonsimon bezning tuzilmasi va funksiyalari, yod tanqisligi, o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishimiz kerak. Qalqonsimon bezning tuzilmasi epiteliy tahlili, konyunktival epiteliy tahlili, yopiq usti sekretsiyasi, yopiq usti sekretsiyasining himoya funksiyalari, transport funksiyalari, immun funksiyalar va retseptor funksiyalar tarzida taqsimlanadi.

Shuningdek, qalqonsimon bezning morfofunktsional holati va yod tanqisligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni taxlil qilganimizda, ularning munosabatlarini tushunimiz va aniqlashimiz mumkin.

**Tadqiqot maqsadi:** Yoshga ko‘ra gipotireoz va gipertireoz holatlaridagi qalqonsimon bezning morfofunktsional parametrlarini taqqoslash.

**Material va usullar:** Tadqiqotda gipotireoz ( $n=120$ ) va gipertireoz ( $n=100$ ) tashxisi qo‘yilgan ayollar ishtirok etdi. Ular yosh guruhlari (18-40, 41-60, 61 va undan ortiq) bo‘yicha tahlil qilindi. Qon tahlillari orqali qalqonsimon bezning asosiy gormonlari (TTG, T4, T3) darajasi aniqlandi. Ultratovush tekshiruvini orqali qalqonsimon bezning hajmi va exogenligi o‘rganildi.

**Natijalar:** Gipotireoz holatlarida yosh ortishi bilan qalqonsimon bezning hajmi kamayish tendensiyasida bo‘lganligi, bunda 61 va undan ortiq yoshdagi bemorlarda bezning hajmi ishonchli ravishda pasayganligi aniqlandi ( $r<0,05$ ). Gipertireoz holatlarida esa yosh o‘zgarishlari bilan qalqonsimon bezning hajmi osha borishi kuzatildi, 61 va undan ortiq yoshdagi bemorlarda hajmi ishonchli ravishda kattalashganligi aniqlandi ( $r<0,05$ ). Qon tahlillarida TTG darajasi gipotireozda yosh ortishi bilan oshib, gipertireozda esa pasayib borganligi tahlil qilindi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, ayollarda gipotireoz va gipertireoz holatlarida qalqonsimon bezning morfofunktsional o‘zgarishlari yosh omili bilan bog‘liq ravishda kechadi. Gipotireozda yosh ortishi bilan qalqonsimon bez atrofiyasi va gormonal yetishmovchilik namoyon bo‘lsa, gipertireozda aks jarayon kuzatiladi. Ushbu xususiyatlar qalqonsimon bez kasalliklarini tashxislash va davolashda yosh omilini hisobga olishni taqozo etadi.